

JINOYAT-IJROIYA HUQUQI TARIXI — JINOYAT-IJROIYA ISQTIBOLINING POYDEVORI

Sarvar Saidov Faxriddin o‘g‘li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Yurisprudensiya fakulteti III bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Jinoyat-ijroiya huquqi sohasining tarixiy bosqichlariga oid qator manbalarni o‘rganish natijasida bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nalishning darajasi, erishgan va erishayotgan yutuqlari haqida fikr-mulohazalarni o‘zida aks ettiradi.

KALIOT SO‘Z VA IBORALAR: Jinoyat-ijroiya huquqi, Konstitutsiya, sud-huquq tizimi, Jinoyat-ijroiya kodeksi, jinoiy jazo, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodeksi.

Mamlakatda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralari dahlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqning munosib hayot kechirishi, fuqarolarning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Shuning zamirida O‘zbekiston Respublikasi rivojlangan mamlakatlar ichida o‘zining Konstitutsiyasi va amalga oshirayotgan islohotlari bilan o‘ziga xos nufuzga ega. Jumladan, mustaqillikning o‘tgan qisqa davri mobaynida sud-huquq islohoti sohasida amalga oshirilgan ishlar ko‘lami bir necha o‘n yilliklarga teng, uni alohida o‘rganib chiqishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Jamiyatning har qaysi a‘zosi o‘z huquqlari, o‘z burchi va mas‘uliyatini puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan, islohot, yangilanish haqidagi barcha so‘zlar va hukumat tomonidan olib borilayotgan sa‘y-harakatlar besamar ketaveradi. Shu boisdan ham davlatning har bir fuqarosi o‘z huquq va erkinliklaridan tortib vazifa-majburiyatlarini to‘la-to‘kis anglamog‘i lozim. Bu jarayonda ayni vaqtda mamlakat bo‘ylab amalda bo‘lgan Jinoyat ijroiya kodeksi kamarbasta poydevor vazifasini bajaradi. So‘nggi yillarda Jinoyat-ijroiya kodeksiga bir necha yangi qo‘shimcha va o‘zgartishlar kiritildi. Jinoiy jazolarni liberallashtirilishi munosabati bilan qabul



qilinayotgan yangi qonun hujjatlari jinoiy jazolarning barcha turlarini o'z ichiga qamrab oldi. Zero, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida shaxs erkinligi, shaxs mustaqilligini, uning dahlsizligi himoya qilinishini taqozo etadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida shaxs dahlsizligi belgilab qo'yilgan, boshqacha qilib aytganda, barcha qonunlar inson manfaatlarini yo'lida xizmat qilmog'i darkor. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaning 26-moddasida ta'kidlanganidek, «hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda ta'ziyqqa duchor etilishi mumkin emas».

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 25-aprelda qabul qilingan Jinoyat-ijroiya kodeksi (JIK.)¹ O'zbekiston Respublikasida nafaqat jinoiy jazolarni, balki boshqa jinoyat-buquqiy ta'sir choralarini ham ijro etishning huquqiy asosini yaratib berdi va aynan shunday qonun-qoidalar bilan avvalgi jazoni ijro etish qonunchiligidan tubdan farq qiyadi. 1970-yil 24-iyundagi Axloq tuzatish mehnat kodeksida jinoiy jazolarning faqat axloq tuzatish bilan bog'liq bo'lgan jazolarning huquqiy asosi nazarda tutilgan bo'lib, jinoiy jazolarning boshqa turlari turli xildagi normativ huquqiy aktlar bilan tartibga solinar edi. Lekin jinoiy jazolarning boshqa axloq tuzatish ishlari bilan bog'liq bo'lmagan bir necha turlari ham mavjud edi. Yangi JIK jinoiy jazolarning barcha turlarini, shu bilan bir qatorda jazo bilan bog'liq bo'lmagan boshqa huquqiy ta'sir choralarini ham ijro etish qoidalarini belgilab berdi.

Bu tarixiy bosqichlardan birin-ketin o'tib kelayotgan respublikada 2001-yil 29-avgustda «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»²gi qonun;

2016-yil 21-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»³gi farmoni;

Shu jumladan, yangi belgilangan maqsadlarni va vazifalarni amalga oshirish maqsadida 2017-yilning 1-apreldan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq

¹ O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT-IJROIYA KODEKSI. 01.10.1997.

<https://lex.uz/docs/-163629>

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 02.11.2001 yildagi 25-son

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2016 yildagi PF-4850-son



bo‘lmagan muqobil jazo turlarini qo‘llashni kengaytirish orqali qamoq tariqasidagi jazo masalalariga;

2017-yil 7-fevralda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasiyai to‘g‘risida»⁴gi Farmonlari respublikaning huquqiy hayotida tadbiiq qilina boshlandi.

So‘zimizning qisqa xulosasi sifatida shuni aytish mumkinki, yuqorida birin-ketin ta‘kidlangan amaliy jarayonlarda faollashib kelayotgan masalalarning barchasi respublikadagi jinoiy-ijroiya masalasini ahamiyati kun sayin oshganidan dalolatdir. Bu bilan faqatgina xalqning, fuqarolarning farovo turmushi haqida qayg‘urilayotgani, buning uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotgani tahsinga sazovor deyilsa, mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, jinoyat-ijroiya huquqi sohasida yuksalishlarga sabab bo‘ldi. Bugungi kunga kelib mamlakatda bu yo‘nalishning nufuzu ortdi, shu jumladan, bu yo‘nalishga nisbatan munosib qulayliklar ham yaratib berilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI

1. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JINOYAT-IJROIYA KODEKSI. 01.10.1997.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 02.11.2001 yildagi 25-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2016 yildagi PF-4850-son
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son
5. <https://lex.uz>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son